

INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES

Impact factor : 6.232

www.ijsps.org

INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 2, Issue 2 2022

**ABDULLOEVA KAMOLA
MIRXON QIZI**



A.NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI
TAYANCH DOKTORANTI

ANTROPOSENTRIK NUQTAI NAZARIDAN KOGNITIV TILSHUNOSLIK RIVOJINING ZAMONAVIY BOSQICHLARI

Annotatsiya: Lingvopragmatika, madaniy tilshunoslik, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, jahon tilshunosligi, etnolingvistika kabi sohalarda tadqiqot obyekti inson omili sanaladi. Tilni antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish muayyan xalqning milliy o'ziga xosligini tahlil qilishni anglatadi. Umuman olganda, til millatning ruhi sanaladi. O'zbek tilshunosligiga oid qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, til xalq mentalitetining ifodasi degan ilmiy qarash til birliklari tahlili orqali ifodalab berildi.

Kalit so'zlar: prototiplik, "tushuncha", konseptual maydoni, addressee, ruhiy jarayonlar, kognitiv psixologiya, terminologiya.

Annotation: The human factor is the subject of research in such areas as linguopragmatics, cultural linguistics, cognitive linguistics, psycholinguistics, neurolinguistics, world linguistics, ethnolinguistics. The study of language from an anthropocentric point of view, refers to the analysis of the national identity of a particular nation. In general, the language is considered the soul of the nation. A number of studies on Uzbek linguistics have shown that the scientific view that language is the expression of the people's mentality expressed through the analysis of language units.

Keywords: prototype, "concept", conceptual space, addressee, mental processes, cognitive psychology, terminology.

Аннотация: Человеческий фактор является предметом исследований в таких областях, как лингвопрагматика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, психолингвистика, нейролингвистика, мировая лингвистика, этнолингвистика. Изучение языка с антропоцентрической точки зрения относится к анализу национальной идентичности конкретной нации. В общем, язык считается душой нации. Ряд исследований по узбекской лингвистике показал, что научная точка зрения о том, что язык является выражением менталитета народа, выражается посредством анализа языковых единиц.

Ключевые слова: прототип, "концепт", концептуальное пространство, адресат, психические процессы, когнитивная психология, терминология.

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 2, Issue 2 2022

Kognitiv tilshunoslik 70-yillarning oxiri va 80- yillarning boshlarida paydo bo'lgan tabiiy til tahliliga yondashuv bo`lib, Jorj Lakoff, Ron Langaker va Len Talmining asarlarida tilga axborotni tashkil qilish, qayta ishslash va uzatish vositasi sifatida izoh berilgan. Shuni hisobga olib Kognitiv tilshunoslikda lingvistik kategoriyalarning kontseptual va tajribaviy asoslarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega: tilning rasmiy tuzilmalarri avtonom ya`ni alohida emas, balki umumiy kontseptual tushhunchani aks ettiruvchi, turkumlash tamoyillari, qayta ishslash mexanizmlari va boshqa tajribaviy hamda muhit bilan bog`liq ta`sir bilan uyg`un holda o`rganiladi.

Ma'lumki, bilim (cognition)ni o'rganish ancha oldin boshlangan. Inson tug'ilishidan boshlab aql, fikr va ong mavjud bo'lgan holda, bilim asosiy tadqiqot obyektiga aylandi. Tarix falsafasiga birinchilardan bo`lib ulkan hissa qo'shgan Aristotel, Platon va Al-Farobi kabi yetuk olimlar til bilish vositasi bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildirganlar. Masalan, Platonning "Kratilos"sida til kognitiv (bilish) vosita sifatida qaraladi.

Shuni ta`kidlab o`tish joizki, asosiy xususiyatlar, o'rganish obyekti, tadqiqot bosqichlari va bilim haqidagi fan tushunchalari birinchi bo`lib G'arb olimlari tomonidan tanishtirilgan.

G. Miller 1950-yillarda paydo bo'lgan bilim haqidagi fanni "axborot nazariyasi simpoziumi" deb nomlangan.

1960-yilda J. Bruner G. Miller bilan birgalikda Garvard universitetida kognitiv tadqiqotlar markazini ochdi. Bu markaz kognitiv tilshunoslikning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shdi. Brunerning ilmiy ishlari kognitiv tilshunoslik bilan bog'liq ayrim muammolarni ohib berdi.

Kognitiv lingvistika tilni insonning umumiy kognitiv qobiliyatlar mujassamlashgan yaxlit tuzilma deb biladi. Kognitiv lingvistika uchun alohida qiziqish uyg'otadigan mavzularga quyidagilar kiradi:

- tabiiy til turkumlarining tarkibiy xususiyatlari – masalan, prototiplik, sistematik polisemiya, kognitiv modellar, aqliy tasvirlar va metafora;
- lingvistik tashkilotning funktional tamoyillari – ikoniklik (iconicity) va tabiiylik (naturalness) kabi;
- sintaksis va semantika o'rtasidagi kontseptual aloqa – Kognitiv grammatika va Qurilish (Konstruktiv) grammatika tomonidan o'rganilganidek;
- amaldagi tilning tajribaviy va pragmatik asosi;
- til va tafakkur o'rtasidagi munosabat.

Kognitiv lingvistika avtonom bo'limgan til o'zlashtirish nazariyasini rivojlantirishi kerak, tilni o'zlashtirish, avvalo, tilning tabiatiga xos bo'limgan mexanizmlar va cheklovlarini o'z ichiga oladi. Til, ikkinchidan, uni o'rganishda cheklovlar mavjud bo'lgan holda tabiiy tilni o'zlashtirishni taqozo etadi, bu hech bo'limganda ma'lum darajada lingvistikaga xos bo'limgan boshqa kognitiv tizimlar tomonidan ta'minlangan "axborot sub'ekti" ga asoslanadi.

V.A. Maslovaning aytishicha, "Kognitiv tilshunoslik kognitivizm (bilisha haqidagi fan) ga asoslanadi va lingvistik tadqiqotlar doirasini kengaytiradigan zamonaviy antropotsentrik paradigmalar doirasida mavjud bo`ladi".

Hozirgi tilshunoslikning eng muhim yutug'i tilning "o'zida va o'zi uchun" deb hisoblangan g`oyaning endi yo'qligidir; unga xos bo'lgan insonning kognitiv faoliyatidagi ishtiroki yangi paradigmada

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 2, Issue 2 2022

namoyon bo'ladi. Til xalqning og'zaki xazinasi, fikr almashish va tashish vositasi bo`lib, fikrni ma'lum bir lingvistik strukturaga "to'playdi". Bunda faqat tilgagina xos bo`lgan bilim qo'llanilmaydi. Bu, shuningdek, dunyo va ijtimoiy kontekst haqidagi bilimdir, muloqot tamoyillari haqidagi, murojat qilayotgan shaxs (addressee) haqidagi ko`nikmalarini ham o`zida mujassamlashtiradi. Yuqorida ta`kidlab o`tilganlarning ko`nikmalarining hech biri ustuvor bo'lishi mumkin emas (Ismailov).

Kognitiv tilshunoslik, albatta, akademik e'tiroz nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga erishadi. Kognitiv lingvistikada nazariyaning ochiqligi va moslashuvchanligi, ehtimol, uning jozibadorligiga hissa qo'shadi. Kognitiv lingvistika bir qator nazariy tilshunoslikning boshqa zamonaviy ishlanmalarida ham mavjud bo'lishi mumkin tendentsiyalarni birlashtirganligini ta'kidlash joiz.

Kognitivism fandagi yo'naliш bo'lib, uning ob'ekti inson ongi, tafakkuri va u bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlar va holatlar hisoblanadi. Bu bilim va bilish, inson faoliyatni jarayonida dunyonidagi idrok etish to`g`risidagi fandir.

Kognitivismning tamoyillari orasida eng muhimi insonni ma'lumotni faol idrok etuvchi va ishlab chiqaruvchi, o'z aqliy faoliyatida ma'lum sxemalar, dasturlar, rejalar, strategiyalar orqali harakat qiluvchi subyekt sifatida talqin va tahlil qilish hisoblanadi. Va kognitiv fanining o'zi inson miyasidagi psixik jarayonlarni boshqaradigan umumiш tamoyillar haqidagi fan sifatida qaralishi mumkin.

Darhaqiqat, Kognitiv tilshunoslik (lingvistika) insonning tafakkuri, ongi, uning aqliy funksiyalari va faoliyatini o`rganuvchi kognitivism bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tadqiqot obyekti – bu odamlarning nazorat qilish, fikrlash tarzini shakllantiruvchi signallar, shuningdek, muayyan tizimga solingan bilimni o'z ichiga olgan bilish hamda idrok qilish sistemasidir. Har qanday shaxsning kognitiv dunyosi ularning aqliy harakatlar va hayotiy tajribalari orqali belgilanadi. Bu borada til yuqoridagilarning asosiy belgisidir.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kognitivism bir nechta ilmiy sohalarni birlashtiradi: kognitiv psixologiya, madaniy antropologiya, sun'iy intellektni modellashtirish, falsafa, nevrologiya, tilshunoslik va h.k.. Shu sababli kognitiv lingvistikating fanlararo xususiyatini qayd etish zarur.

XXI asr boshlarida kognitivism g'oyalaringin tarqalishi ta'siri ostida kognitiv terminologiya shakllandii. Kognitiv yondashuvni terminologiyaga jadal kirib borishi terminologik tadqiqotlarning fikrlashga aloqador bo`lgan fanlar bilan aloqasi sababli bo'lib, shu bilan bir qatorda har qanday dunyo lingvistik tasviri inson lingvistik tasviri bilan chambarchas bir biriga aloqador bo'ladi.

Kognitiv terminologiya fani nuqtai nazaridan, atamalar (terminlar) ilmiy muloqot va kasbiy ilmiy faoliyat jarayonida zarur bo'lgan maxsus bilimlarni to'playdigan axborot va kognitiv tuzilma sifatida izohlanadi (Komarova)

Ilmiy bilimlarning rivojlanishi terminologiya tizimining shakllanishiga sababdir, va terminologiyaning mavjudligi ilmiy bilim mustaqil tadqiqot sohasida allaqachon shakllanganligidan dalolat beruvchi hal qiluvchi shartdir [1-7]. Bu ko'pgina olimlarning tadqiqotlari orqali ham tasdiqlangan: «yaxshi ishlab chiqilgan, tartibga solingan terminologiya kasbiy faoliyatning ilmiy, amaliy va ta'lim sohalari uchun vositadir (Kazarina).

Qisqa qilib aytganda terminologiya tilning leksik tarkibining salmoqli qismini tashkil etuvchi bugungi kundagi fan tili hisoblanadi (Mel'nikov).

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 2, Issue 2 2022

Terminologiya atamalar fani sifatida zamonaviy fan tizimida ustuvor o'rnlardan biriga ega. Shu bilan bir qatorda til lug'atining semantik o'zagi bo'lib xizmat qiladi (Madzhaeva).

Kognitiv lingvistikaning paydo bo'lishi 1989-yilda lingvokognitiv hodisalar tadqiqotchilar Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasini (ICLA) tashkil qilgan paytdan boshlanadi va Kognitiv lingvistika jurnalining birinchi soni 1990 yilda nashr etilgan.

N.F. Alefirenko kognitiv lingvistika tilning tabiatini va mohiyatini o`zgacha tushunishini ta'kidlaydi, bu quyidagicha ifodalanadi:

1. Lingvistik faoliyati ontologik jihatdan birlashgan hamda inson ongida mavjud bo'lgan til tizimini birlashtiruvchi obyekt sifatida tushunila boshlandi, va nutqga nafaqat insonlararo aloqa vositasi, balki ularning fikr va his-tuyg'ularini shakllantirish va ifodalash quroli sifatida qarala boshlandi.
2. Nutqning tildan ustunligi tasdiqlandi, til tizimini funksional amalga oshirish mexanizmlari va uning ijodiy imkoniyatlarni ochib berishga alohida urg`u berila boshlandi
3. Til inson psixikasining aqliy va ruhiy sinergetik birligini ifodalovchi vosita sifatida qaraladi va bu matn nazariyasini qamrab oluvchi lingvokognitiv jarayonni vujudga kelishiga olib keladi. Natijada bu matn nazariyasini boyitish, shuningdek, ma'no va lingvistik birliklar ma'nosi o'rtasidagi munosabat tushunchasini yanada boyitish Imkonini beradi.

Kognitiv lingvistika – bu inson ongida shakllangan dunyo, uning ichki tuzilishi, usul va qonuniyatlar haqidagi bilimlarni o'rganadigan ilmiy soha hisoblanadi. Kognitiv lingvistika, shuningdek, lingvistik bilimlar dunyosi hamda uning elementlarini yanada chuqurroq o'rganishga intiladi [8-13]. Dunyo tasviri turli bilishga asoslangan his-tuyg'ular (hid, ko`rish, ta'm sezish) orqali insonning ongida aks etadi. Yuqoridagilar inson ongida amalga oshirilganda, dunyo haqidagi avval ma'lum bo`lgan ma'lumotlarni ifodalaydi.

Kognitiv tilshunoslik yoki kognitiv metafora nazariyasi lingvistik dunyo tushunchalari bo'yicha tilshunoslikni ma'lum tizimga solish va shakllantirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Har qanday so'zning ma'nosi uning semantik va assotsiativ maydoni orqali aniqlanadi. So'zlar ma'lumotni semantik va assotsiativ jihatdan ifodalaydi va ular kognitiv va pragmatik ma'nolarning alohida elementlari sifatida qaraladi.

"Kognitiv fan asosan inson bilimlari bilan bog'liq. U ko'z orqali his qilsa bo`ladigan ish-harakatlardan tashqari, insonlarning ruhiy kechinmalari, ichki dunyosini kognitiv til modelining timsoli bo'lib xizmat qiluvchi tasvirlar, naqshlar, belgililar, strategiyalarni ham o'rganadi. Hamda bularning barchasi inson harakatlarining asosini tashkil etadi. Shunday qilib, insonning kognitiv dunyosi uning harakati va faoliyati orqali tahlil qilinadi. Butun inson faoliyati va fikrlari til orqali shakllanadi. Til yuqoridagi barcha motivlar va tushunchalarni shakllantiradi va pirovardda erishish mumkin bo`lgan natijalarni oldindan bashorat qila oladi" (Maslova).

Kognitiv fan doirasida eski tushunchalar yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi davom ettiriladi. Masalan, realiyaga oid bo`lgan xusussiyatlar (buyumlar, hodisalar, voqealar) ongda turli dunyo tasvirlarini keltirib chiqaradi. Ulardan ba'zilari rasmlar yoki tasvirlar orqali, boshqalari oddiy tushunchalar vositasida ifodalanadi, bazilari esa ramzlar shaklida tavirlanadi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyasi hisoblanuvchi "tushuncha" lingvistik jarayon bo'lib, mantiqiy modellar kombinatsiyasidan kelib chiqadi, etnoslaring klasterlashgan bilimlarini tasniflaydi,

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 2, Issue 2 2022

shuningdek, til birliklarining sinonimik, assotsiativ, binar va boshqa munosabatlari yaxlitligini ko`rsatadi. Shu sababli ham tushuncha kognitiv tilshunoslikning asosiy obyekti sanaladi.

Har qanday tilning kontseptual maydoni shu tilga mansub bo`lgan etnos va a'zolarining maqsadi va ongini, uning o'ziga xos hayotini belgilab beradi. Shuning uchun semasiologik kategoriya nazariy kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilinishi kerak. Tushunchani o'rganish ma'nolar doirasini boyitadi va bu hodisani antropotsentrik nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini beradi. Tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv ma'no kategoriyasini yangicha nuqtai nazardan ko'rsatib beradi.

Foydalingan adabiyotlar:

1. Mel'nikov, G. P. Osnovy terminovedeniya. M.: Izd-vo Un-ta Druzhby narodov, 1991. 116 s.
2. Madzhaeva, S. Medicinskie terminosistemy: stanovlenie, razvitiye, funkcionirovaniye (namateriale predmetnyh oblastej mediciny saharnyj diabet i SPID). Astrahan': AGMA, 2012. 277 s.
3. Ismailov A.R. Cognitive Terminology As One Of The Directions Of Modern Linguistics. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 07, 2020
4. Alefirenko, N. F. Problemy kognitivnoj lingvistiki. Nauchnaja monografija. Nitra: UKF, 2011. 216 s.
5. Komarova, Z. I. Problemy jazyka nauki // Aktual'nye problemy germanistiki, romanistiki i rusistiki. Ch. 1. Materialy Mezhdunar. nauch. 79 Lingua mobilis № 3 (49), 2014 5-6 fevralya 2010 g. Ekaterinburg, 2010. S. 7-24.
6. Miller, G.A., (1979). Images and models, similes and metaphors. In A. Ortonyed, Metaphor and thought. Cambridge: Cambr. UP.
7. Khakimova, S. I. (2021). Symbol formation in english and uzbek. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 714-718.
8. Bruner, J.S., (1978). The role of dialogue in language acquisition. New York: SpringerVerlag.
9. Maslova, V.A., (2004). Cognitive linguistics. Minsk: Tetra Sistems, pp: 80
10. Nikolaeva, T. M. (2008). Non-paradigmatic Linguistics. Moscow: Languages Slavic culture, 376 p
11. Courtenay Baudouin de J. N. (1963). Selected Works on General Linguistics. St.Petersburg: Authors, 315 p.
12. Abdulloyeva, K. (2021). INGLIZ HAMDA OZBEK ERTAKLARINING LINGVOMADANIY HAMDA STILISTIK TAHLILI. Scientific progress, 2(5), 377-381.
13. Khakimova, S. I. (2021). Symbol formation in english and uzbek. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 714-718.

International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences

ABOUT ▾ GUIDELINES FOR AUTHORS ▾ CURRENT ARCHIVES PRIVACY STATEMENT ▾ EDITORIAL BOARD CONTACT US

Search

Home / Archives / Vol. 2 No. 2 (2022): IJPSSS

Vol. 2 No. 2 (2022): IJPSSS

Published: 08-02-2022

Articles

ANTROPOSENTRIK NUQTAI NAZARIDAN KOGNITIV TILSHUNOSLIK RIVOJINING ZAMONAVIY BOSQICHLARI ABDULLOEOVA KAMOLA MIRXON QIZI	VIEW ARTICLE	1-5
ENCOURAGE THE STUDENTS TO SPEAK AND REFLECT ON A TOPIC THROUGH INTERACTION AND DEBATABLE TOPICS MAHLIYO MIRZAYEVA G'AYRATOVNA	VIEW ARTICLE	6-8
DETERMINATION OF SUICIDALITY AGAINST THE BACKGROUND OF PARASITIC DISEASES IN CHILDREN ASLONOVA M. R.	VIEW ARTICLE	9-12
THE ROLE OF YOUTH IN CREATING A NEW ENLIGHTENED SOCIETY IN UZBEKISTAN AMINJONOVA CH. A., SHODMONOVA X.S.	VIEW ARTICLE	13-17